QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PSIXOLOGIYA
PSYCHOLOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.psi.v08.i10.017

BILINGVAL IDENTICHLIK SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

Ro‘zmetova Mehriyo Nuraddin qizi
Buxoro xalqaro universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti
mehriyoro‘zmetova@gmail.com
orcid: 0009-0007-2887-1595

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o‘smirlik davrida bilingval identichlikning shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar nazariy hamda empirik tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Bilingval identiklik shaxsning ikki yoki undan ortiq til muhitiga mansublik hissini, ushbu tillar bilan bog‘liq madaniy qadriyatlarni o‘z “Men” konsepsiyasiga integratsiya qilishi hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda til va madaniy identifikatsiyalarni muvofiqlashtira olish jarayoni sifatida izohlanadi. O‘smirlik identiklikni izlash, o‘zini anglash, guruhga mansublik va mustaqillik ehtiyojlari kuchayadigan rivojlanish davri bo‘lganligi sababli ikki tillilik mazkur jarayonga alohida psixologik mazmun beradi.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, bilingval identiklik, o‘smirlik, bikultural identiklik, psixologik omil, til identichligi, etnik identiklik, akkulturatsiya, o‘zini anglash, o‘ziga baho, meros tili, ijtimoiy muhit.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ БИЛИНГВАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

АННОТАЦИЯ. В данной статье на основе теоретических и эмпирических исследований анализируются психологические, социальные и культурные факторы, влияющие на формирование билингвальной идентичности в подростковом возрасте. Билингвальная идентичность рассматривается как процесс, включающий ощущение принадлежности личности к двум или более языковым средам, интеграцию культурных ценностей, связанных с этими языками, в собственную «Я-концепцию», а также способность согласовывать языковую и культурную идентификацию в различных социальных ситуациях.

Поскольку подростковый возраст является периодом развития, в котором усиливаются поиск идентичности, самопознание, потребность в групповой принадлежности и стремление к самостоятельности, двуязычие придаёт данному процессу особое психологическое содержание.

Ключевые слова: билингвизм, билингвальная идентичность, подростковый возраст, бикультурная идентичность, психологический фактор, языковая идентичность, этническая идентичность, аккультурация, самосознание, самооценка, язык наследия, социальная среда.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF BILINGUAL IDENTITY FORMATION

ABSTRACT. This article analyzes the psychological, social, and cultural factors influencing the formation of bilingual identity during adolescence based on theoretical and empirical research. Bilingual identity is interpreted as a process through which an individual develops a sense of belonging to two or more linguistic environments, integrates the cultural values associated with these languages into their self-concept, and coordinates linguistic and cultural identities in different social situations. Since adolescence is a developmental period characterized by an intensified search for identity, self-awareness, a growing need for group belonging, and greater independence, bilingualism gives this process a distinctive psychological dimension.

Keywords: bilingualism, bilingual identity, adolescence, bicultural identity, psychological factors, linguistic identity, ethnic identity, acculturation, self-awareness, self-esteem, heritage language, social environment.

KIRISH

XXI asrda migratsiya, xalqaro ta’lim, raqamli kommunikatsiya, turli etnik va til guruhlari o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi ikki va ko‘p tillilikni tobora keng tarqalgan ijtimoiy-psixologik hodisaga aylantirmoqda. Bilingvizm faqat ikki tilda gapira olish qobiliyatini anglatmaydi. Til insonning o‘zini qaysi guruhga mansub deb bilishi, boshqalar bilan qanday munosabat o‘rnatishi, oilaviy xotira, qadriyat va madaniyatni qanday qabul qilishi bilan ham bevosita bog‘liq. Shu sababli bilingval shaxs rivojlanishini faqat lingvistik kompetensiya doirasida o‘rganish yetarli emas.

F. Grosjean bilingval shaxslarni o‘rganishda ikki tillilikni yaxlit hayotiy tajriba sifatida tushunish zarurligiga e’tibor qaratadi. Uning konseptual yondashuvida bilingval individning til tanlovi vaziyat, kommunikativ hamkor, muhit va ijtimoiy ehtiyojlarga qarab o‘zgarishi mumkin[1]. Bilingval va ayni paytda bikultural shaxslar esa ikki yoki undan ortiq madaniyat hayotida turli darajada qatnashadi, ushbu madaniyatlarga mos xulq, qadriyat va til shakllarini egallaydi hamda ularning ayrim elementlarini o‘z shaxsiyatida birlashtiradi.[2]

Adabiyotlar tahlili. Mazkur muammo o‘smirlik davrida alohida ahamiyatga ega. E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik identichlikning shakllanishi bilan bog‘liq markaziy bosqichlardan biridir.[3] O‘smir “Men kimman?”, “Qaysi guruhga mansubman?”, “Boshqalar meni qanday qabul qiladi?”, “Men uchun qaysi qadriyatlar muhim?” kabi savollarga javob izlaydi. Zamonaviy tadqiqotlar ham aynan o‘smirlikda shaxsiy va ijtimoiy identiklik masalalari keskin dolzarblashishini ko‘rsatmoqda. Identichlikning shakllanishi bu davrda biologik, kognitiv va ijtimoiy o‘zgarishlar fonida kechadigan murakkab rivojlanish jarayonidir.[4]

Bilingval o‘smirda bu jarayon yanada ko‘p qirrali tus olishi mumkin. U oilada bir tilda, maktab yoki jamiyatda boshqa tilda muloqot qilishi; bir tilni milliy-madaniy mansublik bilan, ikkinchisini ta’lim, ijtimoiy muvaffaqiyat yoki tengdoshlar muhiti bilan bog‘lashi mumkin. Shuning uchun ikki tilning o‘zaro nisbati o‘smirning “Men” konsepsiyasiga ham ta’sir etadi. Bilingval identiklikni faqat “birinchi til” va “ikkinchi til”ning texnik munosabati sifatida tushunish to‘g‘ri emas. U til, etnik mansublik, ijtimoiy mavqe, oilaviy tajriba, madaniy qadriyatlar va shaxsning subyektiv tanlovlarini qamrab oladigan dinamik tizimdir.

V.Benet-Martínez va J. Haritatos bikultural identiklik integratsiyasini shaxsning ikki madaniy identikligini bir-biriga **“**compatible” yoki “oppositional”, ya’ni uyg‘un yoki qarama-qarshi sifatida qanchalik qabul qilishi bilan bog‘laydi.[5]. Bu ta’rif bilingval identiklikni tahlil qilishda ham muhim: o‘smir o‘z tillarini bir-birini boyitadigan resurs sifatida qabul qilishi yoki ulardan birini ikkinchisiga zid deb his qilishi mumkin.

Shu jihatdan maqolaning maqsadi- o‘smirlik davrida bilingval identiklikning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarni ilmiy tadqiqotlar asosida tizimlashtirish va ularning o‘zaro munosabatini tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA

Mazkur maqola nazariy-tahliliy tadqiqot xarakteriga ega. Tadqiqotda alohida eksperiment yoki yangi respondentlar guruhi jalb qilinmagan. Shu sababli natijalar mavjud ilmiy adabiyotlar va empirik tadqiqotlarni tizimli nazariy tahlil qilish asosida shakllantirildi.

Nazariy asosni E. Eriksonning identiklik haqidagi psixosotsial konsepsiyasi, J. Phinneyning etnik identiklik modeli, J. Berry akkulturatsiya nazariyasi, V. Benet-Martínezning Bicultural Identity Integration modeli hamda F. Grosjeanning bilingvizm va bikulturalizmga doir qarashlari tashkil etdi. J. Phinney o‘smirlikdagi etnik identiklikni tadqiq etib, etnik identiklik rivojlanishini izlanish va muayyan mansublikka nisbatan majburiyat yoki barqaror qaror shakllanishi bilan bog‘laydi. Uning o‘ninchi sinf o‘quvchilari bilan olib borgan tadqiqotida 91 nafar o‘smir qatnashgan va ozchilik guruhlariga mansub o‘smirlarda identiklikning izlanmagan, izlanish jarayonidagi va erishilgan shakllari ajratilgan[6]. Keyingi ishlarda Phinney va Ong etnik identiklikni vaqt davomida rivojlanadigan, exploration va commitment, ya’ni izlanish va mansublikni qabul qilish jarayonlari bilan bog‘liq ko‘p o‘lchovli konstrukt sifatida tavsiflaydi[7]. Bilingval o‘smir uchun til aynan shu izlanishning muhim belgilaridan biri bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot tahlilining asosiy kategoriyalari quyidagicha belgilandi:

individual omillar**:** o‘zini anglash, o‘ziga baho, til kompetensiyasi, motivatsiya, shaxsiy moslashuvchanlik;

oilaviy omillar: ota-onaning til siyosati, meros tilidan foydalanish, emotsional yaqinlik, oilaviy qadriyatlar;

ijtimoiy omillar: tengdoshlar, maktab muhiti, ijtimoiy stereotiplar va tilning prestiji;

madaniy omillar: etnik mansublik, madaniy qadriyatlar va bikultural integratsiya;

stress omillari: akkulturatsion stress, til diskriminatsiyasi, identichlik konflikti va kommunikativ bosim.

NATIJALAR

Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar o‘smirlikni yaxlit identiklik shakllanishi uchun muhim rivojlanish davri sifatida ko‘rsatadi. Eriksonning klassik konsepsiyasida identiklik shaxsning o‘zining vaqt davomida bir butunligini, ijtimoiy roli va kelajak yo‘nalishini his qilishi bilan bog‘langan.

Zamonaviy tadqiqotlar ushbu fikrni yanada rivojlantirib, identichlikning bir martalik hodisa emasligini ko‘rsatmoqda. O‘smir turli alternativalarni sinab ko‘radi, oldingi qarorlarini qayta baholaydi va yangi hayotiy tajribaga qarab o‘zini qayta ta’riflaydi.

Crocetti va hammualliflar tadqiqotlari tahliliga ko‘ra, kuchli va barqaror identiklik majburiyatlari ko‘proq psixososial moslashuv bilan bog‘lanadi, uzoq davom etuvchi identiklik noaniqligi esa xavotir, yolg‘izlik va boshqa qiyinchiliklar bilan aloqador bo‘lishi mumkin[8]

Bilingval o‘smirning identichlik izlanishi bir vaqtning o‘zida bir necha ijtimoiy-madaniy maydonda sodir bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘smir ota-onasi bilan o‘zbek tilida, ta’lim jarayonida rus yoki ingliz tilida, internet muhitida esa yana boshqa til kombinatsiyalarida muloqot qilishi mumkin. Har bir til konteksti ma’lum ijtimoiy rol, qadriyat va emotsional tajriba bilan bog‘lanadi.

Natijada “qaysi tilda gapiraman?” savoli ba’zan “qaysi guruhga mansubman?” yoki “qaysi madaniyat meni ko‘proq ifodalaydi?” mazmunini ham oladi.

Tilni bilish darajasi bilingval identiklikning eng muhim omillaridan biridir. Biroq masala shunchaki ikki tildan foydalanish chastotasida emas, balki ushbu tillarda o‘z fikri, his-tuyg‘usi va madaniy tajribasini erkin ifodalash imkoniyatidadir. J. Oh va A. Fuligni immigrant oilalaridan bo‘lgan 414 nafar lotinamerikalik **va** osiyolik o‘smirni o‘rganib, meros tilini bilish darajasi ota-ona va o‘smir munosabatlari sifati bilan ijobiy bog‘liqligini aniqlagan. Shuningdek, meros tilini bilish ham, undan foydalanish ham etnik identichlik bilan bog‘langan, ammo ikki omil birgalikda hisobga olinganda aynan til kompetensiyasi barqarorroq prediktor bo‘lgan[9].

Bu natija muhim psixologik mazmunga ega. O‘smir ota-onasi va katta avlod bilan ular uchun emotsional jihatdan yaqin bo‘lgan tilda erkin gaplasha olsa:

oilaviy hikoyalarni chuqurroq tushunadi;

qarindoshlik munosabatlarida faol qatnashadi;

madaniy ramzlarning ma’nosini yaxshiroq anglaydi;

avlodlar o‘rtasidagi psixologik masofa kamayadi.

Meros tilining asta-sekin yo‘qolishi esa kommunikativ bo‘shliq yaratishi mumkin. Bunda ota-ona va o‘smir bir-birini grammatik jihatdan tushunsa ham, murakkab emotsiyalar va qadriyatlarni yetkazishda qiyinchilik yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

2024-yilda koreys-amerikalik bilingval o‘smirlar haqidagi sifat tadqiqotida ham meros tilini yaxshi egallash meros madaniyatini tushunish, kuchliroq “Men” hissini shakllantirish va ham meros, ham asosiy jamiyat a’zolari bilan ijtimoiy munosabatlar qurishga xizmat qilgani ko‘rsatilgan[10].

Demak, bilingval identiklik uchun “ikki tildan foydalanish”ning o‘zi emas, balki ikki tilda ma’no yaratish imkoniyati muhimdir.

O‘smirlik davrida o‘zini anglash yanada differensiallashadi. O‘smir o‘zining jismoniy, intellektual, ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatlarini tahlil qiladi. Bilingval muhit bu tizimga yana bir qatlam — lingvistik “Men”ni qo‘shadi.

O‘smir bir tilda o‘zini “erkinroq”, ikkinchi tilda esa “rasmiyroq” his qilishi mumkin. Bu holat har doim identiklik bo‘linishini anglatmaydi. Turli til kontekstlari shaxsning turli ijtimoiy rollarini faollashtirishi tabiiy.

Muammo o‘smir tillardan birini shaxsiyatining “haqiqiy”, ikkinchisini esa “begona” qismi sifatida qabul qilganda kuchayishi mumkin. Masalan:

“Uyda men boshqachaman, maktabda butunlay boshqa odamman” degan hissiyot uzoq muddatda ikki ijtimoiy tajriba o‘rtasidagi psixologik masofani oshirishi mumkin.

Aksincha:

“Men ikkala tilda ham o‘zim bo‘la olaman” degan integrativ qarash o‘smirga ikki tajribani yagona “Men” konsepsiyasida birlashtirish imkonini beradi.

Benet-Martínez va Haritatos tadqiqotlari bikultural identichlikdagi farqlarni ikkita nisbatan mustaqil o‘lchov orqali izohlaydi: madaniy masofa–ustma-ust tushish va madaniy konflikt–uyg‘unlik.[5]

Bu bilingval o‘smir uchun quyidagi savollar orqali namoyon bo‘lishi mumkin:

“Men gapiradigan ikki til bir-biridan juda uzoq olamlarni anglatadimi?”

“Ularning ikkalasiga mansub bo‘lish mumkinmi?”

“Bir tilni tanlash ikkinchisidan voz kechishni anglatadimi?”

Aynan o‘smirning ushbu savollarga ichki javobi uning bilingval identikligini belgilashda katta ahamiyatga ega.

Bilingval identiklik shakllanishida oila birlamchi psixologik makon hisoblanadi. Bola dastlab tilga nafaqat kommunikativ vosita, balki mehr, yaqinlik, xavfsizlik va oilaviy mansublik belgisi sifatida duch keladi.

Oilada ota-onaning biror tilni qadrlashi yoki aksincha, uni “kelajaksiz”, “keraksiz”, “past mavqeli” deb baholashi o‘smirning o‘sha tilga nisbatan munosabatiga ta’sir qilishi mumkin.

Agar ota-ona:

ikki tilni ham qadrlasa;

meros tilidan majburlashsiz foydalanishga rag‘batlantirsa;

til xatolari uchun kamsitmasa;

ikki madaniyatga mansublikni tabiiy holat sifatida ko‘rsatsa, o‘smirda integrativ bilingval identichlik shakllanishi uchun qulay psixologik sharoit yuzaga keladi. Oh va Fulignining tadqiqoti meros tili kompetensiyasi bilan ota-ona–o‘smir munosabatlari sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishi jihatidan ayniqsa muhimdir.[9] Oila ichidagi tilning funksiyasi faqat axborot almashish emas.

U avlodlararo bog‘lanishning psixologik vositasidir. O‘smirlik davrida tengdoshlar guruhining ahamiyati keskin ortadi. O‘smirning qaysi tilda gapirishi ko‘pincha qaysi guruhga qabul qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib qoladi. Agar ma’lum bir til tengdoshlar orasida yuqori ijtimoiy prestijga ega bo‘lsa, o‘smir ushbu tilda faolroq muloqot qilishi mumkin. Aksincha,

meros tili masxara, stereotip yoki “begonalik” belgisi sifatida qaralsa, o‘smir o‘sha tilni jamoat joyida qo‘llashdan qochishi ehtimoli mavjud.

Bu jarayon psixologiyada ijtimoiy identifikatsiya nuqtayi nazaridan izohlanishi mumkin. Shaxs o‘zi a’zo bo‘lgan guruhning ijobiy baholanishini xohlaydi. Til ushbu guruhning ko‘rinadigan belgisi bo‘lgani uchun uning ijtimoiy bahosi shaxsiy o‘ziga bahoga ham ta’sir qilishi mumkin.

Shu sababli bilingval identichlik shakllanishida “Men bu tilni bilaman” faktidan ko‘ra “Bu tilni bilganim uchun boshqalar meni qanday ko‘radi?” savoli ayrim o‘smirlar uchun kuchliroq psixologik ahamiyat kasb etadi.

Maktab o‘smirning oiladan tashqaridagi asosiy ijtimoiy institutlaridan biridir. Undagi til siyosati bilingval identichlikka bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabda faqat dominant tilning yuqori baholanishi va boshqa tillarning ko‘rinmasligi o‘smirga uning uy tili akademik yoki ijtimoiy qiymatga ega emas degan yashirin signal berishi mumkin.

Aksincha:

turli tillarning qadrlanishi;

o‘quvchilarning til tajribalaridan dars jarayonida foydalanish;

ko‘p tillilikni resurs sifatida ko‘rsatish;

o‘qituvchining diskriminatsion hazil va stereotiplarga yo‘l qo‘ymasligi

bilingval o‘smirning ijobiy identifikatsiyasiga xizmat qiladi.

Maktabdagi psixologik xavfsizlik o‘smirning “Men o‘z tilimni yashirishim shart emas” degan hissini mustahkamlaydi.

J. Berry akkulturatsiyani turli madaniy guruhlar o‘zaro uzluksiz aloqa qilganda yuz beradigan psixologik va madaniy o‘zgarishlar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, akkulturatsiyaning oqibatlari bir xil bo‘lmaydi; ular shaxsiy va ijtimoiy omillarga bog‘liq[11].

Berry modeli doirasida shaxsning meros madaniyatini saqlashi va yangi jamiyat bilan munosabat o‘rnatishi turli kombinatsiyalarda yuz berishi mumkin. Integratsiya yo‘nalishida shaxs ham o‘z meros madaniyatini saqlaydi, ham kengroq jamiyat bilan faol munosabatda bo‘ladi.

Bilingval o‘smirda bu jarayon til orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, u oilaviy va etnik muhitda meros tilidan, ta’lim va keng jamoatchilikda dominant tildan foydalanib, ularning ikkalasini shaxsiy resurs sifatida qabul qilishi mumkin.

Schwartz, Unger, Zamboanga va Szapocznik akkulturatsiyani meros va qabul qiluvchi madaniyatga oid amaliyotlar, qadriyatlar va identifikatsiyalar birikmasidan iborat “multidimensional process” sifatida konseptuallashtirishni taklif qilgan[12].

Demak, o‘smirning qaysi tilda gapirishi uning akkulturatsiya darajasini bir o‘lchovli ravishda ifodalamaydi. U bir tilda ko‘proq gapirishi, ammo boshqa madaniyatga ham kuchli emotsional mansublikni his qilishi mumkin.

Ikki madaniyat va ikki tilga mansublikning o‘zi patologik yoki muammoli holat emas. Biroq ushbu muhitlar o‘rtasidagi ijtimoiy bosim kuchli bo‘lsa, o‘smir akkulturatsion stressni boshdan kechirishi mumkin.

Akkulturatsion stress quyidagi vaziyatlarda kuchayishi ehtimoli mavjud:

ota-ona va tengdoshlarning tilga oid talablari bir-biriga zid bo‘lsa;

o‘smirdan “faqat bitta madaniyatni tanlash” talab qilinsa;

til aksenti sababli masxara qilinsa;

o‘smir tarjimonlik yoki vositachilik vazifasini doimiy ravishda bajarishga majbur bo‘lsa;

dominant til yetarli darajada egallanmaganligi sababli ijtimoiy muvaffaqiyatsizlik yuz bersa;

meros tilini bilmaslik oilada aybdorlik hissini uyg‘otsa.

Berry akkulturatsiya natijalari shaxsiy va ijtimoiy sharoitlarga bog‘liq holda sezilarli farq qilishini qayd etadi.[11] Ward esa akkulturatsion jarayonni madaniyatni o‘rganish, ijtimoiy ko‘nikmalarni egallash va stress nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish mumkinligini ta’kidlaydi[13].

Shu sababli bilingval o‘smirning psixologik moslashuvini baholashda “nechta tilni biladi?” savolining o‘zi kifoya qilmaydi. Muhimi — u bu tillar va ular ifodalaydigan guruhlar bilan qanday psixologik munosabatda.

Bikultural identiklik integratsiyasi bilingval identiklikni tushuntirish uchun eng muhim zamonaviy konstruktlardan biridir. Benet-Martínez va Haritatos ikki madaniyatga mansub shaxslar o‘z identichliklarini turlicha qabul qilishini ko‘rsatadi. Ayrimlar ikki madaniyatni bir-biriga mos va uyg‘un deb bilsa, boshqalar ularni qarama-qarshi va ziddiyatli deb his qiladi[5].

Birinchi holatdagi o‘smir:

“Men ikkala madaniyatning ham bir qismiman”

degan integrativ pozitsiyani shakllantirishi mumkin.

Ikkinchi holatdagi o‘smir esa:

“Bittasini tanlasam, ikkinchisidan voz kechishim kerak”

degan ichki konfliktni his qilishi mumkin.

S. Chen, V. Benet-Martínez va M. Bond tomonidan olib borilgan tadqiqotda bikultural identiklik integratsiyasi bir nechta tanlanmalarda psixologik moslashuvni ijobiy bashorat qilgan; til kompetensiyasi va madaniy identifikatsiya ham moslashuv bilan bog‘liq bo‘lgan[14].

Demak, bilingval identichlikning psixologik sifati ikki til mavjudligidan ko‘ra ularning shaxs “Men”ida qanday integratsiyalanganiga ko‘proq bog‘liq. Bikultural hayot tajribasi ba’zan faqat stress yoki identiklik konflikti nuqtayi nazaridan tasvirlanadi. Biroq zamonaviy meta-tahlillar bunday bir tomonlama qarashni qo‘llab-quvvatlamaydi.

Nguyen va Benet-Martínez tomonidan amalga oshirilgan meta-tahlil 83 tadqiqot, 322 ta effekt ko‘rsatkichi va 23 197 nafar ishtirokchini qamrab olgan. Tadqiqotchilar bikulturalizm va psixologik hamda sotsiokultural moslashuv o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini aniqlagan[15].

Bu natija ikki madaniyatga mansublikning o‘zi psixologik xavf emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, ikki tizimni integratsiya qilish imkoniyati:

moslashuvchanlik;

kengroq kommunikativ repertuar;

turli nuqtayi nazarlarni tushunish;

bir necha guruh bilan ijtimoiy aloqa o‘rnatish;

murakkab ijtimoiy vaziyatlarga moslashish

uchun qo‘shimcha resurs bo‘lishi mumkin.

MUHOKAMA

Olingan nazariy natijalar o‘smirlikdagi bilingval identiklikni faqat til o‘rganish mahsuli deb tushuntirib bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Bilingval identiklik individual, oilaviy, ijtimoiy va madaniy omillarning o‘zaro ta’sirida shakllanadigan dinamik psixologik tizimdir.

Tahlil asosida bilingval identiklik shakllanishini shartli ravishda quyidagi tizim orqali ifodalash mumkin:

Til kompetensiyasi - kommunikativ ishonch - ijtimoiy mansublik - madaniy identifikatsiya - bilingval “Men” integratsiyasi.

Biroq ushbu jarayon har doim to‘g‘ri chiziqli emas. Ijtimoiy diskriminatsiya yoki oilaviy konflikt kabi omillar har qanday bosqichga ta’sir qilishi mumkin.

Masalan, meros tilini yaxshi biladigan o‘smir ham ushbu til jamiyatda kamsitilsa, uni jamoat joyida qo‘llashdan qochishi mumkin. Aksincha, tilni mukammal bilmasa-da, oilasi va jamiyat tomonidan madaniy mansubligi qo‘llab-quvvatlangan o‘smir ijobiy etnik identichlikni saqlab qolishi mumkin.

Shu sababli til kompetensiyasi muhim, biroq u identichlikni mustaqil ravishda belgilaydigan yagona omil emas.

O‘ziga bahoning o‘rni

Bilingval o‘smirning o‘ziga bahosi uning til tajribasiga nisbatan ijtimoiy reaksiyalar orqali shakllanishi mumkin. Ota-ona, o‘qituvchi yoki tengdoshning:

“Sen ikki tilda gapira olasan — bu katta imkoniyat”

degan yondashuvi bilingvizmni shaxsiy kompetensiya sifatida talqin qiladi.

Aksincha:

“Sen bu tilda yaxshi gapirmaysan”,

“aksenting kulgili”,

“uydagi tiling kerak emas”

kabi muntazam salbiy munosabat o‘smirda lingvistik ishonchsizlikni shakllantirishi mumkin.

Bunda o‘smirning til xatosi bilan uning shaxsiy qadri aralashib ketmasligi juda muhim.

Ikki tillilikning mavjudligi avtomatik tarzda identiklik konfliktini keltirib chiqarmaydi. Konflikt ko‘proq ikki mansublikni birga saqlashning ijtimoiy yoki psixologik jihatdan “mumkin emas” deb his qilinishida yuzaga keladi.

Masalan:

oila “faqat bizning tilimizda gapir” deydi;

tengdoshlar esa o‘sha tilni masxara qiladi.

Bunday holda o‘smir ikkita muhim ijtimoiy guruhning bir-biriga zid talablariga duch keladi.

Benet-Martínezning modeli nuqtayi nazaridan bu vaziyat madaniy konflikt hissini kuchaytiradi.[5]

Demak, psixologik yordamning vazifasi o‘smirni bir identiklikdan voz kechishga undash emas, balki ikkala tajribani uyg‘un ravishda birlashtirish imkonini topishga ko‘maklashish bo‘lishi kerak.

Ikki tilli kishilar ayrim mavzular yoki hissiyotlarni ma’lum bir tilda ifodalash osonroq ekanini his qilishi mumkin. Bu holat bolalikda qaysi tilning qaysi munosabatlarda o‘zlashtirilganiga bog‘liq.

Masalan, meros tili:oila; bolalik; mehr; an’ana bilan kuchli bog‘langan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi til esa: ta’lim; kasbiy istiqbol; mustaqillik; tengdoshlar; zamonaviy axborot makoni bilan bog‘lanishi mumkin.

Bunda bilingval identichlik ikki tajriba o‘rtasida “tanlov” emas, ularni yagona biografik hikoyada bog‘lash jarayoniga aylanadi.

Ota-onalar ba’zan farzand meros tilidan kam foydalanishini madaniyatdan voz kechish sifatida talqin qilishi mumkin. O‘smir esa dominant tilda muloqotni shunchaki ijtimoiy moslashish vositasi sifatida ko‘rishi mumkin.

Bu farq oilaviy konflikt manbaiga aylanishi ehtimoli mavjud.

Ota-onalar uchun quyidagi yondashuvlar samaraliroq: meros tilidan foydalanishni aybdorlik orqali majburlamaslik; til bilan iliq emotsional tajribalarni bog‘lash; kitob, musiqa, film va oilaviy suhbatlardan foydalanish; o‘smirning ikkinchi tildagi muvaffaqiyatini meros madaniyatiga tahdid sifatida talqin qilmaslik; bolaning bir necha madaniy guruhga mansubligini hurmat qilish.

O‘qituvchi bilingval o‘quvchini “tilida kamchiligi bor bola” sifatida emas, murakkab lingvistik repertuarga ega o‘quvchi sifatida ko‘rishi zarur.

Bilingvalizmni resurs sifatida tan olish: o‘quvchining o‘ziga ishonchini; darsdagi faolligini; guruhga mansublik hissini; boshqa madaniyatlarga hurmatini oshirishi mumkin.

Maktabdagi ko‘p tilli muhit ayniqsa o‘smirning madaniy tajribasini tan olish orqali uning identikligini tasdiqlovchi ijtimoiy makonga aylanishi mumkin.

Bilingval o‘smir bilan ishlayotgan psixolog identiklik muammosini diagnostika qilishda:

1. qaysi tillarni bilishi;
2. har bir tilda kimlar bilan gaplashishi;
3. qaysi til bilan qanday emotsional assotsiatsiyalar mavjudligi;
4. oilaning tilga munosabati;
5. tengdoshlarning munosabati;
6. kamsitilish tajribasi;
7. qaysi madaniyatga mansublik hissi kuchli ekanligi;
8. ushbu mansubliklar bir-biriga mos yoki ziddiyatli his qilinishini

o‘rganishi maqsadga muvofiq.

Psixologik ish “bitta to‘g‘ri identichlikni” tanlatishga emas, o‘smirning o‘ziga mos va ichki jihatdan izchil identichlikni shakllantirishiga ko‘maklashishga qaratilishi lozim.

XULOSA. O‘smirlik davri identichlikni faol izlash va mustahkamlash bosqichi bo‘lib, bilingval o‘smirlarda bu jarayon til, madaniyat va ijtimoiy mansublikning o‘zaro ta’siri bilan

yanada murakkablashadi. Tahlil natijalari bilingval identichlikning shakllanishiga quyidagi asosiy psixologik omillar ta’sir etishini ko‘rsatdi:

birinchidan, o‘smirning o‘zini anglash va barqaror “Men” konsepsiyasini shakllantirish darajasi; ikkinchidan, har ikki tildagi kommunikativ kompetensiya va o‘ziga ishonch; uchinchidan, ota-ona bilan emotsional yaqinlik va oilaning tillarga nisbatan munosabati; to‘rtinchidan, meros tilini bilish darajasi va uning oilaviy-madaniy munosabatlardagi funksiyasi; beshinchidan, tengdoshlarning qabul qilishi va tilning guruh ichidagi ijtimoiy mavqei; oltinchidan, maktabda ko‘p tillilikka nisbatan shakllangan ijtimoiy-psixologik muhit; yettinchidan, etnik va madaniy identifikatsiyaning rivojlanishi; sakkizinchidan, akkulturatsion stress, diskriminatsiya va tilga asoslangan stereotiplar; to‘qqizinchidan, o‘smirning ikki madaniy identiklikni bir-biriga uyg‘un yoki qarama-qarshi tarzda qabul qilishi; o‘ninchidan, shaxsning psixologik moslashuvchanligi va ikki madaniyat tajribasini integratsiya qila olish qobiliyati ta’sir qiladi.

Fuligni tadqiqoti meros tilidagi kompetensiyaning etnik identiklik va oilaviy munosabatlar bilan aloqasini ko‘rsatgan bo‘lsa, Benet-Martínez va hamkasblarining ishlari ikki madaniyatni ichki jihatdan uyg‘unlashtirish psixologik jihatdan muhim ekanini ko‘rsatadi. Nguyen va Benet-Martínez meta-tahlili esa bikulturalizmning umuman olganda psixologik va sotsiokultural moslashuv bilan ijobiy aloqadorligini namoyon qilgan.

Shunday qilib, bilingvalizm o‘smir shaxsi uchun o‘z-o‘zidan muammo emas. Asosiy masala ikki tilning o‘smir hayotida qanday ijtimoiy va psixologik mazmun kasb etishidir. Oilada va jamiyatda ikkala til va madaniyat qadrlansa, o‘smir ularni bir-birini inkor etuvchi emas, balki o‘z shaxsiyatini boyituvchi resurs sifatida integratsiya qilishi mumkin.

Demak, bilingval identiklikni sog‘lom rivojlantirish uchun o‘smirni “bir tomonni tanlash”ga majburlashdan ko‘ra, uning bir nechta til va madaniy mansubliklarini o‘zaro uyg‘unlashtirishiga psixologik, pedagogik va ijtimoiy sharoit yaratish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Benet-Martínez V., Haritatos J. Bicultural Identity Integration (BII): Components and Psychosocial Antecedents // *Journal of Personality*. — 2005. — Vol. 73(4). — P. 1015–1050. DOI: 10.1111/j.1467-6494.2005.00337.x.
2. Berry J. W. Immigration, Acculturation, and Adaptation // *Applied Psychology*. — 1997. — Vol. 46(1). — P. 5–34. DOI: 10.1111/j.1464-0597.1997.tb01087.x.
3. Branje S., de Moor E. L., Spitzer J., Becht A. I. Dynamics of Identity Development in Adolescence: A Decade in Review // *Journal of Research on Adolescence*. — 2021.
4. Chen S. X., Benet-Martínez V., Bond M. H. Bicultural Identity, Bilingualism, and Psychological Adjustment in Multicultural Societies: Immigration-Based and Globalization-Based Acculturation // *Journal of Personality*. — 2008. — Vol. 76(4). — P. 803–838. DOI: 10.1111/j.1467-6494.2008.00505.x.
5. Crocetti E. Adolescent Identity Development Processes, Implications and Interventions // *Nature Reviews Psychology*. — 2026. — Vol. 5. — P. 441–457.
6. Erikson E. H. *Identity: Youth and Crisis*. — New York: W. W. Norton, 1968. — 336 p.

7. Grosjean F. Studying Bilinguals: Methodological and Conceptual Issues // *Bilingualism: Language and Cognition*. — Cambridge University Press, 2003.
8. Grosjean F. *On Bilinguals and Bilingualism*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2024.
9. Nguyen A.-M. T. D., Benet-Martínez V. Biculturalism and Adjustment: A Meta-Analysis // *Journal of Cross-Cultural Psychology*. — 2013. — Vol. 44(1). DOI: 10.1177/0022022111435097.
10. Oh J. S., Fuligni A. J. The Role of Heritage Language Development in the Ethnic Identity and Family Relationships of Adolescents from Immigrant Backgrounds // *Social Development*. — 2010. — Vol. 19(1). — P. 202–220. DOI: 10.1111/j.1467-9507.2008.00530.x.
11. Park M. Y. Heritage Language Use and Identity Construction: A Study of Two Korean-American Bilingual Adolescents // *Sustainable Multilingualism*. — 2024. DOI: 10.2478/sm-2024-0001.
12. Phinney J. S. Stages of Ethnic Identity Development in Minority Group Adolescents // *Journal of Early Adolescence*. — 1989. — Vol. 9(1–2). DOI: 10.1177/0272431689091004.
13. Phinney J. S., Ong A. D. Conceptualization and Measurement of Ethnic Identity: Current Status and Future Directions // *Journal of Counseling Psychology*. — 2007. — Vol. 54(3). — P. 271–281. DOI: 10.1037/0022-0167.54.3.271.
14. Schwartz S. J., Unger J. B., Zamboanga B. L., Szapocznik J. Rethinking the Concept of Acculturation: Implications for Theory and Research // *American Psychologist*. — 2010. — Vol. 65(4). — P. 237–251. DOI: 10.1037/a0019330.
15. Ward C. Culture Learning, Acculturative Stress, and Psychopathology: Three Perspectives on Acculturation // *Applied Psychology*. — 1997. — Vol. 46(1). — P. 58–62. DOI: 10.1111/j.1464-0597.1997.tb01094.x.